

# **Uzbekistan Airways reyslari to‘g‘risida rasmiy xabar**

**2022 7 November**

“Uzbekistan Airways” AJ Axborot xizmati quyidagilarni ma’lum qiladi:

Bugun, 2022-yil 7-noyabr kuni Toshkent xalqaro aeroportida noqulay ob-havo sharoiti tufayli Uzbekistan Airways bir nechta reyslarini zahira aeroportlariga o’tkazilishiga majbur bo‘lindi:

HY602 Moskva – Toshkent qatnovi Navoi aeroportiga yo‘naltirildi

HY336 Jidda – Toshkent qatnovi Samarqand aeroportiga yo‘naltirildi

Ushbu yo‘nalishdagi qatnovlar belgilangan manzilga yetib borgan.

Bundan tashqari, Farg‘ona xalqaro aeroportida noqulay ob-havo sharoiti tufayli rejalarshirilgan HY081 Toshkent – Farg‘ona reysi soat 06.55 dan 09.30 ga ko‘chirildi. HY277 Farg‘ona – Istanbul reysi havo kemasi Farg‘ona xalqaro aeroportidan o‘z yo‘nalishi bo‘yicha jo‘nab ketdi.

Shu munosabat bilan, HY278 Istanbul – Farg‘ona va HY082 Farg‘ona – Toshkent reyslari kechikib amalga oshirilishini ma’lum qilamiz.

“Uzbekistan Airways” AJ Axborot xizmati aviakompaniya uchun yo‘lovchilar xavfsizligi yuqori o‘rinda turishini eslatib o’tadi. Keltirilgan noqulayliklar uchun yo‘lovchilar va ularni kutib oluvchilardan uzr so‘raymiz.